

KORPUS LINGVISTIKASIDA INTERTEKSTUALLIKNING ROLI

Xomidova Mahfuzaxon Farhodjon qizi

PhD, O'zMU dotsenti v.b.

Annotatsiya: Bugun amaliy tilshunoslik sohalari qatorida korpus lingvistikasi ham o'z o'rniga ega va ayni damda juda zarur yo'nalishlardan biridir. Korpusda jamlangan materiallar asosida tadqiqotchilar, til o'rganuvchilar juda katta imkoniyatga ega bo'ladilar. Ushbu maqolada korpus lingvistikasi va korpusning zarurati hamda til korpuslarida intertekstuallikning o'rni haqida atroflicha fikr yuritilgan. Xususan, ingliz tili uchun yaratilgan korpusdagi intertekstual biurliklar, ularning manbasi, statistikasi kabilar mavzuga bog'liq holda berilgan. Shu bilan birga muayyan til korpuslarida intertekstlarning berilishi va uning foydali tomonlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: korpus lingvistikasi, milliy korpus, matn, iqtibos, Shekspir, intertekstuallik.

Annotation. Today, corpus linguistics has its place among the fields of applied linguistics and is one of the most necessary areas at the moment. Based on the materials collected in the corpus, researchers and language learners will have a great opportunity. In this article, corpus linguistics and the need for corpora and the role of intertextuality in language corpora are discussed. In particular, the intertextual units in the corpus created for the English language, their source, statistics, etc., are given depending on the topic. At the same time, the provision of intertexts in certain language corpora and its useful aspects are analyzed.

Keywords: Corpus linguistics, national corpus, text, quotation, Shakespeare, intertextuality.

Аннотация: Сегодня корпусная лингвистика занимает свое место среди областей прикладной лингвистики и является одним из наиболее востребованных направлений на данный момент. На основе материалов, собранных в корпусе, у исследователей и изучающих язык появится прекрасная возможность. В этой статье обсуждаются корпусная лингвистика, необходимость корпусов и роль интертекстуальности в языковых корпусах. В частности, в зависимости от темы приводятся интертекстуальные единицы в корпусе, созданном для английского языка, их источник, статистика и т.д. При этом анализируется обеспеченность интертекстами в отдельных языковых корпусах и ее полезные стороны.

Ключевые слова: Корпусная лингвистика, национальный корпус, текст, цитата, Шекспир, интертекстуальность.

Til korpusi qidiruv dasturiga bo'ysundirilgan, ma'lum bir tilga oid matnlar majmuyi hisoblanadi. Matnlar korpusi bu - bir yoki bir qancha tildagi matnlarning elektron shakli hamdir.

Korpuslar 10 milliondan 100 milliongacha, hatto milliardlab so'z qo'llanishlarini o'z ichiga oladi. Misol uchun Britaniya milliy korpusi, Vengriya milliy korpuslarida 100 milliondan ortiq so'z mavjud [6]. Tilning mukammal korpuslarida til paydo bo'lgandan buyon hozirgi kungacha yaratilgan barcha yozma, og'zaki, (audio, video) matnlar joylashtiriladi. Til korpusining ahamiyati shundaki, unda barcha nutq uslublariga, tilning turli davrlariga, shevalarga xos matnlar o'z aksini topadi, shuningdek, tilga xos eng mayda detallarni ham qidiruvchiga taqdim eta oladi.

Korpuslarning asosiy vazifasi tillarning grammatika, leksiklogiya, umuman barcha yo‘nalishlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun bebaho manba rolini bajarishida ko‘rinadi. Shuningdek, korpus yordamida til sathlarida ma‘lum bir davrda, bir asrda yuz bergan o‘zgarishlarni kuzatish mumkin bo‘ladi. Korpusning yana bir ahamiyatli jihati shuki, ona tili yoki chet tilini o‘rganuvchilar uchun tilning barcha sathlari bo‘yicha o‘quv manbasi bo‘la olishidadir. Qisqacha aytganda, korpuslar muayyan tilning barcha boyliklarini bir joyga to‘playdigan asosiy vositadir. Muayyan bir tilning milliy korpusi yaratildi degani bu – shu tilning elektron manbalari mavjud deganidir. Hozir dunyoda ingliz, ispan, rus, vengr, italyan, xitoy kabi tillarning milliy korpuslari yaratilgan. Shuningdek, bir qator turkiy tillarning ham milliy korpuslari yaratilmoqda.

Korpusning asosiy, parallel korpuslar, shevaga xos matnlar korpusi, poetik korpuslar, og‘zaki nutq korpusi kabi turlari mavjudligi adabiyotlarda qayd etiladi.

Korpus tarkibini shakllantiruvchi asosiy obyekt bu – turli matnlar hisoblanadi. Misol uchun shevaga xos matnlar korpusida ma‘lum bir shevaga oid so‘zlarning qo‘llanilishi matnlar yordamida beriladi. Yoki og‘zaki korpuslarda yozib olingan og‘zaki matnli misollar yordamida korpus shakllantiriladi. Chunki ma‘lum bir so‘zning ma‘nosi, aynan amaldagi ma‘nosi kontekstda, ya‘ni matnda namoyon bo‘ladi. Korpus matnlardan iborat ekan, umuman, matnlar bilan ish ko‘rar ekan, unda matnlararo matn, ya‘ni intertekstual matnlarning ham o‘z o‘rni bor.

Intertekstuallik matn tahlilida asosiy tamoyillardan biri bo‘lib, bugun u lingvistika va adabiyotshunoslikning asosiy tadqiq obyektini hisoblanadi. Ilmiy muomalaga bu bu atama fransuz olimasi Y. Kristeva tomonidan 1967-yilda olib kirilgan. Uning “Baxtin, so‘z, dialog va roman”[Kristeva, 1967: 438.] nomli ilmiy risolasida ilk bor bu atama qo‘llangan va intertekstuallik hodisasiga ta‘rif berilgan. Olima intertekstuallik asosan ilmiy va badiiy matnda uchrashini ta‘kidlab, ko‘proq badiiy matndagi intertekstuallik tamoyiliga urg‘u beradi. Y.Kristevaning intertekstuallikka bergan ta‘rifi quyidagicha:

“Har qanday matn sitatalar mozaikasidan tuzilgan va har qanday matn boshqa bir matn bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi[Kristeva, 1967: 440]”. Garchi olima aytganidek har bir matn sitatalar mozaikasidan iborat bo‘lmasa ham, har qanday matnda, albatta, intertekstuallik elementlariga duch kelish mumkin. Umuman olganda, muayyan matn tarkibida boshqa matn parchasining kelishi intertekstuallikdir. Intertekstuallik faqat badiiy uslubdagina emas, tilning barcha shakllarida, ya‘ni shevaga xos matnlarda, yoshlar nutqida, qariyalar nutqida, og‘zaki va yozma so‘zlashuv uslubida, ilmiy, rasmiy, siyosiy, publististik matnlarda ham faol qo‘llanuvchi hodisa hisoblanadi. Muayyan matnlar korpus uchun ajratib olinganda, albatta, uning tarkibidagi o‘zga matn parchalari ham korpusdan joy oladi.

Aksariyat tilshunoslar korpusdan “misollar banki” sifatida foydalanishadi. Chunki korpusda til materiallarining katta qismi to‘plangan, shuningdek, maxsus qidiruv tizimi orqali ishning tezlashuviga yordam beradi[1, 95]. Mana shu jarayonda asl matnlar bilan, ular tarkibida kelgan intertekstlar ham qidiruv davomida chiqib keladi. Quyida ingliz korpusida uchragan intertekstlarning asosiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Amerika ingliz tilining milliy korpusida eng ko‘p tarqalgan intertekstual matnlar bu taniqli shoir, dramaturg va mashhur ingliz adibi Uilyam Shekspir asarlaridan olingan iqtiboslardir [6]. Xususan, uning mashhur “Romeo va Juliyetta” tragediyasidagi *“Vidolashish - bu shirin qayg‘u”* (*Parting is such sweet sorrow*) [5] jumlasida Amerika korpusidagi turli janrlardagi matnlarda 13 marta uchraydi. Shuni ta‘kidlash o‘rinliki, Shekspir asarlaridan iqtiboslarni boshqa kontekstlarda ishlatish ularning semantikasida o‘zgarish bilan birga keladi. Allaqachon ma‘lum ma‘nolarga ega

bo‘lgan havolalarni batafsilroq o‘rganib chiqib, uning qaysi kontekstda qanday ma’nolarda kelganini ajratish mumkin. Bu jumla beshta nutq uslubining deyarli barchasida: og‘zaki, ilmiy, publististik, badiiy uslublarda uchragan hamda kontekst bo‘yicha ma’lum ma’no nozikliklariga ega bo‘lgan.

Shekspirning yana bir mashur asari “Gamlet” dan olingan – “tirik qolish yo o‘lish: shudir masala” jumlasini, ya’ni hayot haqidagi abadiy savol korpusda 14 marta uchragan. Bu mashhur jumla ko‘proq hayot va o‘lim haqidagi falsafiy asarlarda uchragan. Xususan, “Poeziya” ilmiy-adabiy jurnalining bir maqolasida bu jumladan hayot, o‘lim, o‘z joniga qasd qilish kabi psixologik jarayonlarni tasvirlashda intertekst sifatida foydalanilgan.

Amerika korpusida, shuningdek, Shekspirning o‘zbek kitobxonlari uchun ham yaxshi tanish bo‘lgan “Hayot bu – teatr” degan jumlasini ham intertekst sifatida turli janrdagi matnlarda uchraganligini ko‘rish mumkin. Umuman olganda, aksariyat intertekst matnlarning Shekspir ijodidan ekanligini, ularning asosiy matn ko‘rinishidan tashqari, intertekst sifatida ham korpus tarkibidan joy olishini til egalari uchun uning asarlari va iboralari mashurligi, shuningdek, Shekspir asarlari tilining ekspressiv va fatik funksiyalari mukammalligi bilan ham izohlash mumkin.

Elektron matn korpusiga asoslanib intertekstuallik hodisasi o‘rganish muayyan bir iqtibos turli vaziyatlarda va qanday hollarda ulardan foydalanishga ehtiyoj tug‘ilishini hamda matn tarkibida qanday vazifa bajarayotganini qiyoslash imkonini beradi. Shuningdek, ma’lum bir matndan olingan iqtibos, ya’ni intertekstni turli janrdagi matnlarda uchrashini qiyoslash, ularning o‘ziga xosliklarini aniqlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Chunki intertekstuallik hodisasidan tilimizning turli uslublarida shunchalik keng va ko‘p foydalanamizki, bugun ularning ayrimlari tayyor til materiali sifatida lisonimizdan o‘rin egallagan. Intertekstuallik hodisasi o‘rganayotgan tadqiqotchi minglab qog‘oz kitoblardan shu hodisaga misolni qidirib vaqt yo‘qotmaydi. Elektron qidiruv yordamida o‘ziga kerakli manbani soniyalarda topa olish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa korpusning amaliy ahamiyati qanchalik muhimligini yana bir bor ko‘rsatuvchi omildir. Dunyo tilshunosligidagi ayrim sohalar qatori matn tadqiqining ham kuchayganligi aksariyat tillarda milliy korpuslarning mavjudligi uchundir. O‘zbek tilining ham milliy korpusi bu – tilshunoslar, adabiyotshunoslar, til o‘ganuvchilar uchun juda katta imkoniyat deganidir. Bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, natijalar ko‘p sohalar rivojiga, birinchi o‘rinda esa o‘zbek tilining butun boyligi elektron ko‘rinishda avlodlarga yetib borishiga xizmat qiladi. Shuningdek, muayyan millat dunyoqarashi, tili va madaniyati haqida xabar beruvchi matniy hodisa – intertekstuallikni ham kengroq va chuqurroq tahlil qilish, o‘rganish imkoni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Захаров, В. П. Корпусная лингвистика. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2012. – 188 с.
2. Kristeva, J. Bakhtine, le mot, le dialogue et le roman Texte. / J. Kristeva // Critique, 1967. T. 23, № 239, pp. 438 465.
3. Что такое Корпус? Национальный корпус русского языка [Электронный ресурс]. — Режим доступа: <http://www.ruscorpora.ru/corpora-intro>.
4. M. Xomidova. Intertextuality and literary translation. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 2019. 309-311.
5. The Complete Works of William Shakespeare [Electronic resource]. URL: <http://shakespeare.mit.edu/>

6. The Corpus of Contemporary American English [Electronic resource]. URL: <http://corpus.byu.edu/coc>
7. M.Xomidova. The problem of intertextuality in modern linguistics //Central Asian Problems of Modern Science and Education. – 2019. – T. 3. – №. 4. – C. 259-263.
8. M.Xomidova. Intertekst tushunchasi, tadqiqi va turlari. Educational Research in Universal Sciences, 2(4 SPECIAL), 2023.902–908.
9. M.Xomidova. Erkin Vohidov ijodida intertekstuallik. Research and education, 1(9), 2022. 525–533.